



UDK: 37.018.43:004.738.5

Shokhsanam USMANOVA,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o'qituvchisi
E-mail: usmanova.sh@uwed.uz

O'zDJTU dotsenti, PhD M.Gulyamova taqrizi asosida

GOOGLE CLASSROOM ORQALI YOZMA KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Аннотация

Ushbu maqolada Google Classroom (GC) platformasi orqali ingliz tilida yozma ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Mualliflar platformaning integratsiya imkoniyatlari cheklangani, avtomatik xabarnomalarining yetishmasligi hamda talabalarining past ishtiroki kabi muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy yechimlarni taklif qilishgan. Shuningdek, real vaqqli hamkorlik, raqamli savodxonlikni oshirish va tashqi ta'lim tizimlari bilan uyg'unlashtirish orqali yozma ko'nikmalarni samarali rivojlantirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Google Classroom, yozma ko'nikmalar, onlayn ta'lim, raqamli savodxonlik, talabalar ishtiroki.

KEY CHALLENGES AND SOLUTIONS IN ENHANCING WRITING SKILLS THROUGH GOOGLE CLASSROOM

Annotation

This article analyzes the key challenges and practical solutions related to developing writing skills through the Google Classroom (GC) platform. The authors identify limitations such as poor integration, lack of automated notifications, and low student engagement. Practical solutions including real-time collaboration tools, improved digital literacy, and integration with external learning systems are proposed to enhance students' writing skills effectively.

Key words: Google Classroom, writing skills, online education, digital literacy, student engagement.

ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ ПРИ РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ПИСЬМА С ПОМОЩЬЮ GOOGLE CLASSROOM

Аннотация

В статье анализируются основные проблемы и практические решения, связанные с развитием навыков письма на платформе Google Classroom (GC). Авторы выявляют такие ограничения, как слабая интеграция, отсутствие автоматических уведомлений и низкая вовлеченность студентов. Предлагаются практические меры, включая использование инструментов для совместной работы в реальном времени, повышение цифровой грамотности и интеграцию с внешними образовательными системами для эффективного развития письменной речи учащихся.

Ключевые слова: Google Classroom, навыки письма, онлайн-обучение, цифровая грамотность, вовлеченность студентов.

Kirish. Google Classroom (GC) masofaviy ta'limda foydali platforma hisoblanadi. Biroq, uning samarali qo'llanishida bir qancha cheklavlar mavjud. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, GC platformasida integratsiya imkoniyatlari kam, Google ekotizimiga haddan tashqari bog'liq, avtomatik yangilanishlar yetarli emas va talabalarining o'zaro hamkorligida qiyinchiliklar mavjud (Singh va boshq., 2020). Shuningdek, tajribasiz foydalanuvchilar uchun interfeysning ba'zi funksiyalari tushunarsiz bo'lib, ko'proq vaqt talab etadi.

1-Muammo: Platforma cheklavlari va raqamli savodxonlik.

Tafsilot. GC foydalanuvchilarga cheklangan integratsiya imkoniyatlarini taklif qiladi va Google ekotizimiga bog'liqligi sababli xizmat uzilishlari yoki yangilanishlar sekinlashuvi muammolar keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, o'qituvchilar topshiriq muddati va materiallarni joylashtirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayrim tugmalar va sozlamalar faqat tajribali foydalanuvchilarga tushunarli bo'lib, yangi foydalanuvchilar uchun chalkashliklar tug'diradi (Singh et al., 2020).

Yechim: GC'ni boshqa ta'lim platformalari bilan integratsiya qilish taklif etiladi. Masalan, Moodle yoki Canvas kabi LMS (Learning Management System) tizimlarini GC bilan uyg'unlashtirish orqali ko'proq funksiyalar va

moslashuvchanlik ta'minlanadi (Zakaria, 2023). Bu nafaqat Google xizmatlariga to'liq bog'liqlikni kamaytiradi, balki o'quv jarayonining uzluksizligini ham kafolatlaydi. O'qituvchilar uchun bu platformalarni qo'shgan holda raqamli resurslar, testlar, va baholash vositalari xilma-xilligini oshirish mumkin.

2-Muammo: Internet aloqasi va avtomatik xabarnomalarining yo'qligi

Tafsilot. Talabalar ko'pincha internet aloqasi pastligi yoki uzilishi tufayli vazifalarni bajara olmaydilar (Y. Amelia, 2020). Bundan tashqari, GC avtomatik bildirishnomalarni taqdim etmagani sababli talabalar muhim e'lon yoki topshiriqlardan bexabar qolishlari mumkin. Bunday kechikishlar o'quv jarayonining sifati va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (Tech & Learning, 2021).

Yechim: GC'da mavjud bo'lgan rejalashtirilgan postlar, e'lonlar va Google Calendar integratsiyasidan faol foydalanish orqali talabalarni doimiy xabardor qilish zarur. Shu bilan birga, Remind yoki ClassDojo kabi ilovalar yordamida real vaqt rejimida ogohlantirishlar yuborish mumkin. Bu, ayniqsa, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati sust bo'lgan yoki yoshroq o'quvchilar uchun juda muhim.

3-Muammo: Talabalarining kam ishtiroki va hamkorlikdagi yozuvlar yetishmasligi

Tafsilot. Ba'zi talabalarda o'z-o'zini rag'batlantirish va topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish bo'yicha muammolar mavjud. Talabalar faqat sharh qoldira olishadi, ammo real vaqtda o'qituvchilar bilan muloqot qilish imkoniyati cheklangan (Ratnaningsih, 2019; Abidin & Saputro, 2019). Ko'p hollarda talabalar materiallarni faqat yuklab olishadi, ammo ularni qayta ishlash yoki yozma topshiriqlarni bajarishda passiv qolishadi.

Yechim: Google Docs, Sheets, Slides kabi real vaqt rejimida tahrirlash imkoniyatiga ega vositalardan foydalanish talabalar o'rtasidagi hamkorlikni oshiradi. Shuningdek, Google Classroom'dagi yangi "Talabalar guruhlar" funksiyasi guruhli ishlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi (Neli, 2024). Biroq, bu jarayon samarali bo'lishi uchun talabalarga raqamli etiket va konstruktiv fikr bildirish madaniyatini o'rgatish lozim. Shu tarzda talabalar o'z yozma fikrlarini boshqa ishtirokchilar bilan tahlil qilgan holda rivojlantirishadi.

4-Muammo: Foydalanuvchilarni moslashtirish (onboarding) va platformadan to'liq foydalanmaslik.

Tafsilot. Google Classroom'ni samarali joriy etishdagi asosiy to'siqlardan biri yangi foydalanuvchilarga platformani tushuntirish va o'rgatish bo'yicha zarur tayyorgarlik yetishmasligidir. Ko'plab o'qituvchilar va talabalar GC'ga kutilmaganda duch kelib, hech qanday tayyorgarliksiz foydalanishga majbur bo'lishadi (Zakaria, 2023). Bu esa ularning funksiyalarni to'liq anglab yetmasliklariga, ayrim imkoniyatlardan umuman foydalanmasliklariga yoki hatto platformaga nisbatan salbiy munosabat shakllanishiga olib keladi.

Yechim: Tashkilotlar foydalanuvchilarni GC interfeysi bilan tanishtirish uchun trening mashg'ulotlari, video darsliklar, foydalanuvchi qo'llanmalari va seminarlar tashkil etishlari zarur. Tajribali foydalanuvchilar ishtirokida tengdosh murabbiylik (peer mentorship) dasturlarini yo'lga qo'yish orqali ham yangi foydalanuvchilarga samarali yordam ko'rsatish mumkin (Zakaria, 2023). Shuningdek, tezkor ma'lumotnomalar va muammolarga yechim topishda yordam beruvchi elektron qo'llanmalar foydali bo'ladi. Foydalanuvchilar platformani tushungan sari, uning imkoniyatlaridan innovatsion va ijodiy foydalanishga intilishadi.

5-Muammo: Internet aloqasining uzilishi va past imkoniyatlar

Tafsilot. Internet aloqasi zaif yoki beqaror hududlarda yashovchi talabalar uchun GC orqali ta'lim olish katta muammoga aylanishi mumkin. Ayniqsa, qishloq joylarida yoki kam resursli o'quvchilarda vazifalarni onlayn topshirish imkoniyati cheklanadi. Bu esa ta'limda tengsizlikka olib keladi (Hassan, 2020).

Yechim: Google Docs va boshqa Google ilovalarida mavjud "offline mode" funksiyasini faollashtirish, dars materiallarini bosma shaklda yetkazib berish yoki mobil internet paketlari bilan ta'minlash orqali bu muammoni yumshatish mumkin. Zarurat tug'ilganda topshiriqlar bo'yicha qisqa ko'rsatmalarni SMS orqali yuborish ham foydali bo'ladi. Texnologiya muhim bo'lsa-da, inkluzivlik birinchi o'ringa qo'yilishi kerak. Raqamli tenglik har qanday masofaviy ta'lim tashabbusining asosiy tamoyiliga aylanishi lozim (Hassan, 2020).

6-Muammo: Yozma topshiriqlarda talabalarning past ishtiroki

Tafsilot. Google Classroom (GC) orqali yozma ko'nikmalarni rivojlantirishdagi asosiy muammolardan yana biri bu talabalarning topshiriqlarda past ishtirok darajasidir. An'anaviy sinflardan farqli o'laroq, GC asosan asinxron aloqa

vositalariga tayanganligi sababli real vaqtli muloqot va bevosita rag'batlantirish imkoniyati yo'qoladi. Bu holat o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqaning susayishiga olib keladi, bu esa shaxsiylashtirilgan yondashuvning yo'qligiga sabab bo'ladi (Dhawan, 2020).

Yechim: GC'dagi yozma faoliyatlarni jonlantirish uchun multimedia materiallar va interaktiv yozma topshiriqlarni qo'shish tavsiya etiladi. Masalan, reflektiv savollar, ssenariy asosidagi yozuvlar yoki guruhli hikoya tuzish kabi topshiriqlar orqali talabalarni faol ishtirokga jalb qilish mumkin (Ferdig et al., 2020). GC'ning turli vositalarni ulash imkoniyati orqali o'qituvchilar matnga asoslangan oddiy topshiriqlardan chiqib, talabani diqqatini tortadigan ijodiy va muloqotga asoslangan topshiriqlarni yaratishlari mumkin. Bizningcha, interaktivlikni oshirish orqali GC'da boyroq o'quv muhiti vujudga keladi, bu esa talabalarning yozuv faoliyatiga ko'proq jalb bo'lishiga va natijada yanada chuqurroq fikrlash va yuqori sifatli yozuv ishlari paydo bo'lishiga olib keladi.

7-Muammo: Onlayn yozma vazifalarda kechiktirish (prokrastinatsiya)

Tafsilot. Onlayn o'quv jarayonida, ayniqsa GC kabi o'z-o'zini boshqarish asosiga qurilgan platformalarda talabalar nazoratning yo'qligi tufayli yozma vazifalarni ko'p hollarda kechiktiradilar. Bu kechiktirish o'z navbatida o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalariga, vaqtni boshqarish va vazifaga bo'lgan yondashuvga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yechim: Prokrastinatsiyani kamaytirish uchun yozma topshiriqlarni bosqichlarga bo'lib, har biriga aniq muddat belgilash tavsiya etiladi. Masalan, esse yozish topshirig'i quyidagicha rejalashtirilishi mumkin: fikrlar yig'ish, rejani tuzish, dastlabki matnni yozish, tengdoshlar fikri, yakuniy topshirish. Har bir bosqich uchun GC orqali alohida topshiriq yaratilsa va belgilangan muddatlar belgilanib borilsa, talabalar uzluksiz ishtirok etadilar (Annisa va Friatin, 2024). Yilmaz (2021) fikriga ko'ra, aniq belgilangan muddatlar o'z-o'zini boshqarish va vaqtni to'g'ri rejalashtirishni rag'batlantiradi. Bu yondashuv talabalarda izchil yozuv odatlarini shakllantiradi va ularni uzoq muddatli, murakkab topshiriqlardan cho'chimay bajarishga undaydi. GC'dagi avtomatik eslatmalar esa talabalarni reja asosida harakat qilishga undovchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Google Classroom (GC) bu raqamli ta'limda zamonaviylik, qulaylik va interaktivlikni birlashtiruvchi kuchli vosita sifatida namoyon bo'layotganiga qaramay, undan samarali foydalanish uchun muayyan infratuzilmaviy, pedagogik va metodik sharoitlar ta'minlanishi talab etiladi. Tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, GC yordamida yozma ko'nikmalarni rivojlantirishda qator tizimli muammolar mavjud: foydalanuvchilarni yetarlicha tayyorlamaslik, internet aloqasining beqarorligi, ikkinchi til sifatida ingliz tilini o'rganuvchilarga mos resurslarning yetishmasligi bularning barchasi o'quvchilarning ta'limga qiziqishini pasaytirishi, ularning yozma faoliyatini cheklashi mumkin.

Ammo bu muammolar GC'dan foydalanishdan voz kechishga asos bo'la olmaydi. Aksincha, ular tizimli yondashuv orqali hal qilinadigan muammolardir. O'z navbatda, raqamli platformalardan foydalanuvchilarning texnologik savodxonligini oshirish bo'yicha uzluksiz o'quv kurslari, amaliy seminarlar tashkil etilishi lozim. Bu nafaqat o'qituvchilar, balki o'quvchilar uchun ham muhim. Chunki GC'da mustaqil ishlash o'z-o'zini boshqarish, vaqtni samarali taqsimlash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Abidin, Z., & Saputro, T. M. (2020). Google Classroom as a mathematics learning space: Potentials and challenges. *Journal of Physics: Conference Series*, 1567(2), 022094. <https://doi.org/10.1088/1742-6596/1567/2/022094>
2. Amelia, Y. (2020). The implementation of Google Classroom in English learning: Students' perception. *Journal of English Language and Education*, 5(2), 123–130. <https://jele.or.id/index.php/jele/index>
3. Annisa, D., & Friatin, L. Y. (2024). Reducing students' procrastination in online learning through structured assignments. *Journal of Educational Research and Instruction*, 18(2), 88–95.
4. Anugrahana, A. (2020). Hambatan, solusi dan harapan: Pembelajaran daring selama masa pandemi COVID-19 oleh guru sekolah dasar. *Scholaria: Jurnal Pendidikan dan Kebudayaan*, 10(3), 282–289.
5. Dhawan, S. (2020). Online learning: A panacea in the time of COVID-19 crisis. *Journal of Educational Technology Systems*, 49(1), 5–22. <https://doi.org/10.1177/0047239520934018>
6. Ferdig, R. E., Baumgartner, E., Hartshorne, R., Kaplan-Rakowski, R., & Mouza, C. (Eds.). (2020). Teaching, technology, and teacher education during the COVID-19 pandemic: Stories from the field. Association for the Advancement of Computing in Education (AACE). <https://www.learntechlib.org/p/216903/>
7. Hassan, W. (2020). COVID-19 Pandemic: Langkawi Vocational College Student Challenge in Using Google Classroom for Teaching and Learning (T&L). *International Journal of Advanced Trends in Computer Science and Engineering*, 9(3), 3299–3307. <https://doi.org/10.30534/ijatcse/2020/127932020>
8. Nelijs, J. (2024, August 20). Google Classroom comes back from summer break with a better approach to group projects. *The Verge*. <https://www.theverge.com/2024/8/20/24224594/google-classroom-student-group-assignments>
9. Ratnaningsih, P. W. (2019). The use of Google Classroom application for writing and speaking in English education class. *Indonesian EFL Journal*, 5(1), 93–110.
10. Restifo, D. (2022, March 7). Education communication: Best free sites & apps. *Tech & Learning*. <https://www.techlearning.com/news/best-free-sites-and-apps-for-education-communication>
11. Saminathan, C., Lim, P., Yin, Mustafa, Z., & Abdullah, A. (2020). Teachers' Challenges in Implementing the Highly Immersive Programme (HIP) in the Classrooms. *Language Education and Acquisition Research Network Journal*, 13(2). <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1258805.pdf>
12. Singh, C. K. S., et al. (2020). Rethinking English language teaching through Telegram, WhatsApp, Google Classroom and Zoom. *Systematic Reviews in Pharmacy*, 11(11), 45–54. <https://rims.upsi.edu.my/public/pub/articles/evidence/10582-2020-09-28-01-18-45.pdf>
13. Yilmaz, R. M. (2021). The impact of time management and motivation on student procrastination in digital learning. *Education and Information Technologies*, 26, 3111–3128. <https://doi.org/10.1007/s10639-020-10315-z>
14. Yuliana, Ohorella, H. M., Oratmangun, E., & Lestari, E. (2024). The limitation of Google Classroom as an online platform in EFL teaching. *JULIET*, 5(1), 45–56. <https://ejournal.um-sorong.ac.id/index.php/juliet/article/view/3605>
15. Zakaria, M. I. (2023). A Systematic Review of Google Classroom in Mathematics Education. *International Journal of Academic Research in Progressive Education and Development*, 12(1), 50–65. <https://doi.org/10.6007/ijarped/v12-i1/16535>